ARBITRAJDA SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN TAYYORLANGAN HUJJATLARNING HUQUQIY KUCHI VA DALILIY AHAMIYATI

Qahhorova Durdona Ulug'bek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro tijorat huquqi yo'nalishi magistranti
E-mail: durdonakahhorova0135@gmail.com
durdona.kahhorova@uetconstruction.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining huquqiy jarayonlarga, xususan xalqaro tijorat arbitrajiga kirib kelishi atroflicha tahlil qilinadi. Bugungi kunda SI tizimlaridan foydalanish dalillarning maqbulligi, ularning haqiqiyligini tasdiqlash hamda protsessual tenglik kabi bir qator fundamental huquqiy savollarni yuzaga keltirmoqda. Maqolada arbitraj jarayonlarida SI tomonidan yaratilgan hujjatlar va taqdim etilayotgan dalillarning nazariy asoslari, ularni qo'llashdagi amaliy xavf-xatarlar hamda yangi shakllanayotgan xalqaro me'yoriy-huquqiy baza qiyosiy tahlil orqali o'rganiladi. Ayniqsa, Mata v. Avianca sud keysida kuzatilgan SI "gallyutsinatsiyasi", "qora quti" muammosi va tijorat sirlarining maxfiyligi masalalari arbitraj protsessida adolatli sudlov (tegishli protsessual huquq) tamoyillariga jiddiy xavf tug'dirayotgani ko'rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada elektron dalillarni to'plash jarayoni, xalqaro maqbullik standartlari, xususan, IBA dalillarni olish qoidalarining 9(1)-moddasi, Silicon Valley Arbitraj va Mediatsiya Markazi (SVAMC) yo'riqnomalari hamda Chartered Institute of Arbitrators (CIArb) ko'rsatmalari o'zaro qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot xulosasi sifatida, arbitrajda SI tomonidan taqdim etiladigan dalillarning ishonchliligini ta'minlash maqsadida muallif tomonidan ishlab chiqilgan uch bosqichli sertifikatlash mexanizmi va SI vositalaridan foydalanilganini majburiy oshkor qilish talabining ilmiy-huquqiy asoslari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt (SI), dalillarning maqbulligi (admissibility of evidence), daliliy ahamiyat (probative value), tegishli protsessual huquq (due process), oshkor qilish (disclosure), xalqaro tijorat arbitraji, "gallyutsinatsiya" muammosi, "qora quti" muammosi, SVAMC yo'riqnomalari, CIArb ko'rsatmalari, eDiscovery, Nyu-York Konvensiyasi.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the integration of Artificial Intelligence (AI) technologies into legal proceedings, with a specific focus on international commercial arbitration. Today, the utilization of AI systems raises several fundamental legal questions, such as the admissibility of evidence, the authentication of its validity, and procedural equality. Through a comparative*

analysis, the article examines the theoretical foundations of AI-generated documents and evidence presented in arbitration proceedings, the practical risks associated with their application, and the newly emerging international regulatory framework. In particular, it highlights how the AI "hallucination" observed in the Mata v. Avianca case, the "black box" problem, and the confidentiality of commercial secrets pose serious threats to the principles of due process in arbitration. Furthermore, the article conducts a comparative analysis of electronic evidence collection processes and international admissibility standards, specifically Article 9(1) of the IBA Rules on the Taking of Evidence, the guidelines of the Silicon Valley Arbitration & Mediation Center (SVAMC), and the directives of the Chartered Institute of Arbitrators (CIArb). Concluding the study, the author analyzes the scientific and legal foundations of a self-developed three-stage certification mechanism and the mandatory disclosure requirement for the use of AI tools, aimed at ensuring the reliability of AI-presented evidence in arbitration.

Keywords: *Artificial Intelligence (AI), admissibility of evidence, probative value, due process, disclosure, international commercial arbitration, hallucination problem, black box problem, SVAMC Guidelines, CIArb Guideline, eDiscovery, New York Convention.*

Аннотация: *В данной статье проводится всесторонний анализ внедрения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в правовые процессы, в частности, в международный коммерческий арбитраж. На сегодняшний день использование систем ИИ порождает ряд фундаментальных правовых вопросов, таких как допустимость доказательств, подтверждение их подлинности и процессуальное равенство. Посредством сравнительного анализа в статье исследуются теоретические основы документов и доказательств, создаваемых ИИ в арбитражном процессе, практические риски, связанные с их применением, а также формирующаяся новая международная нормативно-правовая база. В частности, показано, как феномен «галлюцинации» ИИ, зафиксированный в судебном деле Mata v. Avianca, проблема «черного ящика» и вопросы конфиденциальности коммерческой тайны создают серьезные угрозы принципам справедливого судебного разбирательства (надлежащей правовой процедуры) в арбитражном процессе. Кроме того, в статье проводится сравнительный анализ процессов сбора электронных доказательств и международных стандартов их допустимости, в частности, статьи 9(1) Правил МКА (IBA) по получению доказательств, руководств Центра арбитража и медиации Кремниевой долины (SVAMC) и указаний Чартерного института арбитров (CIArb). В качестве заключения исследования анализируются научно-правовые основы разработанного автором*

трехэтапного механизма сертификации и требования об обязательном раскрытии факта использования инструментов ИИ, направленные на обеспечение надежности доказательств, представляемых ИИ в арбитраже.

Ключевые слова: *Искусственный интеллект (ИИ), допустимость доказательств, доказательственная ценность, надлежащая правовая процедура (due process), раскрытие информации, международный коммерческий арбитраж, проблема галлюцинаций, проблема чёрного ящика, руководящие принципы SVAMC, руководство CIArb, eDiscovery, Нью-Йоркская конвенция.*

1. Kirish

XXI asrning uchinchi o‘n yilligida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining o‘sishi jamiyatning deyarli barcha sohalarini, shu jumladan huquqiy tizim va nizolarni hal qilish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirishga olib keldi. Jahon iqtisodiyoti tobora raqamlashib borar ekan, xalqaro tijorat munosabatlarida va tranzaksiyalarida SI texnologiyalaridan foydalanish kundalik hodisaga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, xalqaro arbitraj jarayonlarida SI tomonidan yaratilgan, qayta ishlangan yoki tahlil qilingan hujjatlar va ma’lumotlarning ishlatilishi masalasini dolzarb qilmoqda.

2022 yil noyabrda OpenAI tomonidan ishga tushirilgan ChatGPT dasturi 2024-2025 yillarga kelib kunlik bir milliarddan ortiq so‘rovni qayta ishlab, texnologiyalar tarixida eng tez tarqalgan ilovalardan biriga aylandi.[1] Generativ SI ning asosini tashkil etgan katta til modeli (*Large Language Model* – LLM) GPT-4 simulyatsiya qilingan advokatlik imtihonida (*Uniform Bar Exam*) eng yaxshi 10 foizga kirib, turli professional sinovlarda insonlarga raqobatbardosh intellektni namoyish etdi.

Xalqaro arbitraj nizolarni hal qilishning muqobil shakli sifatida maxfiylik *(confidentiality)*, tezkorlik va xalqaro tan olinishi kabi afzalliklarni taqdim etadi. UNCITRAL Namuna Qonuni,[2] 1958 yilgi Nyu-York Konvensiyasi[3] hamda ICC, LCIA, SIAC kabi nufuzli institutlar qoidalari bilan tartibga solinadigan bu soha protsessual moslashuvchanlik *(procedural flexibility)* tufayli innovatsion dalil materiallarga ochiq hisoblanadi. Biroq, SI tomonidan yaratilgan dalillar va hujjatlarning arbitrajda qo‘llanilishi bir qator murakkab huquqiy savollarni yuzaga keltiradi: (1) dalillarning maqbulligi *(admissibility)* va autentifikatsiya *(authentication)* talablari; (2) “qora quti” *(black box)* muammosi tufayli tekshirish *(verifiability)* imkonsizligi; (3) maxfiy ma’lumotlarning ommaviy SI modellariga oshkor bo‘lish

[1]OpenAI. GPT-4 Technical Report. OpenAI, 2023. URL: https://cdn.openai.com/papers/gpt-4.pdf.
[2]UNCITRAL. Model Law on International Commercial Arbitration. URL: https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/modellaw/commercial_arbitration
[3]United Nations Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York, 10 June 1958). Mavjud: https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/new-york-convention-e.pdf

xavfi; (4) Nyu-York Konvensiyasi doirasida arbitraj qarorining ijro etilishi *(enforcement)* risklari; (5) mualliflik va huquqiy javobgarlik *(liability)* zanjirining noaniqligi.

Ushbu maqolaning maqsadi SI tomonidan tayyorlangan hujjatlarning xalqaro tijorat arbitrajidagi huquqiy kuchi va daliliy ahamiyatini har tomonlama tahlil qilish, mavjud nazariy yondashuvlar, xalqaro me'yoriy hujjatlar hamda amaliyotni qiyosiy o'rganish va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

2. Sun'iy intellekt dalillarini to'plash (eDiscovery) va ularning maqbulligi (admissibility)

Zamonaviy SI vositalari shartnomalarni avtomatik tahlil qilish, katta hajmdagi elektron ma'lumotlar (elektron pochta xabarlari, hujjatlar, ma'lumotlar bazalari) ni saralash hamda mumkin bo'lgan shartnoma buzilishlariga oid dalillarni aniqlash jarayonini *eDiscovery* (elektron dalillarni aniqlash va oshkor qilish) sezilarli darajada tezlashtirdi va optimallashtirdi. Masalan, sun'iy intellekt bilan jihozlangan *Relativity aiR for Review* platformasi kalit so'zlar, mavzu tahlili yordamida kata hajmdagi ma'lumotlarini bir necha soat ichida saralab, an'anaviy ko'rib chiqish usullariga nisbatan haftalab vaqtni tejash imkonini beradi.[4] Buyuk Britaniya sud amaliyotida *Practice Direction 57AD* ning 3.2(3)-bandi texnologiyalar yordamida oshkor qilish *(disclosure)* jarayonini ishonchli, samarali va iqtisodiy jihatdan tejamkor tarzda amalga oshirishni rag'batlantiradi.[5] Shu bilan birga, oshkor qilish jarayonida SI dan foydalanishga oid mustaqil sud amaliyoti hali to'liq shakllanmagan, bu huquqiy noaniqlik xalqaro arbitrajda ham sezilmoqda.

Hozirda SI bilan ishlagan tomonlar va advokatlar faktik yozuvlarni tezroq o'zlashtiradi, ishning kuchli va zaif tomonlarini erta aniqlaydi va strategik jihatdan ustunlikka ega bo'ladi. Biroq SI xato qilganda ahamiyatsiz dalillarni belgilash, muhim muddatlarni o'tkazib yuborish yoki noto'g'ri klassifikatsiya oqibatlar jiddiy bo'lishi mumkin. Shu sababli amaliyotda SI va inson intellektini birlashtirgan yondashuv advokat SI tomonidan birinchi bosqichda ajratilgan hujjatlarning ishonchliligi va tegishliligini (relevance and reliability) mustaqil baholaydigan model optimal deb hisoblanadi.

Ovozni tanish texnologiyasi va generativ SI faktik guvohlar bilan suhbatlarni dastlabki qayta ishlash hamda birinchi qoralamalarni tuzish imkonini beradi. Biroq *Practice Direction 57AC* asosida *White Book 2025* izohlari generativ SI dan guvoh bayonotlarining mazmunini shakllantirishda foydalanishni hech bo'lmaganda SI

[4]Microsoft Purview eDiscovery, Relativity aiR for Review: Relativity Corp., 2024–2025: https://learn.microsoft.com/en-us/purview/ediscovery.

[5]Practice Direction 57AD – Disclosure in the Business and Property Courts: https://www.justice.gov.uk/courts/procedure-rules/civil/rules/part57adpd

mazmunan tarkibni taklif qilgan darajada tavsiya etmasligini qayd etadi.[6] Sababi bunday bayonot guvohning o‘z so‘zlari emas, balki SI modelining tili hisoblanishi xavfini tug‘diradi. Ekspert dalillariga kelsak, AQSh sud amaliyotida ba’zi ekspertlar SI dan, jumladan tabiiy tilni qayta ishlash va his-tuyg‘ular tahlili vositalarini, o‘z tahlillarini asoslash uchun foydalanishini ochiq tan olishgan. Ekspertning mustaqilligi va xolisligi majburiyati *(obligation of independence and impartiality)* bu holda alohida muhimlik kasb etadi, ekspert o‘zining xulosasini SI chiqarib bergan natijaga emas, balki mustaqil ilmiy metodologiyasiga asoslashi zarur.[7]

Xalqaro arbitrajda dalillarni baholashning asosiy me’yoriy hujjati Xalqaro Advokatlar Assotsiatsiyasining *(International Bar Association – IBA)* 2020 yildagi “Xalqaro arbitrajda dalillarni olish qoidalari” *(IBA Rules on the Taking of Evidence in International Arbitration)*dir. Mazkur qoidalarning 9(1)-moddasi tribunalga quyidagi hollarda har qanday hujjat, bayonot yoki og‘zaki guvohlikni chiqarib tashlash ixtiyoriy vakolatini beradi: tegishlilik va ish natijasiga muhimligi yetarli darajada bo‘lmasa, huquqiy to‘siq mavjud bo‘lsa yoki iqtisodiyot nuqtai nazaridan maqsadsiz bo‘lsa.[8] SI tomonidan yaratilgan hujjatlar ham xuddi shu mezonlar asosida baholanadi. Biroq klassik dalil talablari, autentifikatsiya, ishonchlilik va asl manbani tekshirish imkoniyati SI hujjatlariga nisbatan ancha murakkab ko‘rinish kasb etadi. Chunki SI qaysi ma’lumot bazasiga tayanib, qanday metodologiya bilan muayyan xulosaga kelganini har doim ham tushuntirib bera olmaydi. Shu sababli bir qator arbitral tribunallar SI tomonidan yaratilgan dalillarni qabul qilish masalasida ehtiyotkor yondashuv siyosatini shakllantirishga kirishgan.

Onlayn nizolarni hal qilish *(Online Dispute Resolution – ODR)* platformalarida SI protsessual samaradorlikni oshiruvchi muhim vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda, SI jarayon muddatlarini eslatish, shikoyat xatlariga dastlabki javoblar tayyorlash, nomaqbul iboralarni avtomatik filtrlash va tinglovlarni rejalashtirish kabi funksiyalarni bajaradi. AQShda ishlab chiqilgan *SmartSettle* platformasi mediator ishtirokisiz pul bilan bog‘liq da’volarini hal qilishga mo‘ljallangan. Tomonlar o‘z takliflarini maxfiy tarzda tizimga yuklaydi, SI ularni solishtiradi va o‘zaro maqbul kelishuv chegarasi aniqlanganda tomonlarga taqdim etadi.[9] Britaniyada *Nominet* platformasi domen nomi va tovar belgisi egalari o‘rtasidagi nizolarni maxfiylik prinsipiga asoslanib hal qiladi, muzokaralar bosqichida barcha ma’lumotlar maxfiy bo‘lib qoladi, kelishuvga

[6]Practice Direction 57AC – Trial Witness Statements in the Business and Property Courts. White Book 2025 (Volume 2), last updated 6 January 2025. https://www.justice.gov.uk/courts/procedure-rules/civil/rules/part-57a-business-and-property-courts/practice-direction-57ac-trial-witness-statements-in-the-business-and-property-courts

[7]Akramov Akmal, Sun'iy intellektning xalqaro tijorat arbitrajida nizolarni hal qilishdagi ahamiyati: monografiya. – T.: TDYU nashriyoti: https://drive.google.com/file/d/1Xq8LeN9MFZ1HQ7Y1P_BGHYZml_uvA6bR/view

[8]International Bar Association (IBA). Rules on the Taking of Evidence in International Arbitration: https://www.ibanet.org/document?id=iBA-rules-taking-ev-2020

[9]SmartSettle International Inc. SmartSettle ODR platforma: https://www.smartsettle.com/smartsettle-auction

erishilmasa tomonlar sudga murojaat qilish huquqini saqlaydi. Ushbu platformalar SVAMC va CIArb yo‘riqnomalaridagi shaffoflik tamoyillariga mos keladi, algoritm qoidalari oldindan ma’lum, tomonlar jarayon haqida to‘liq ma’lumotga ega. Bu “qora quti” muammosini ODR muhitida minimallashtirishga yordam beradi.

3. Protsessual risklar: “qora quti”, maxfiylik va “gallyutsinatsiya” muammolari

SI tizimlarining eng xavfli xususiyatlaridan biri gallyutsinatsiya *(hallucination)* hodisasidir. Tizim mantiqan to‘g‘ri ko‘rinadigan, ammo faktik jihatdan noto‘g‘ri yoki butunlay uydirma ma’lumotlar, sitatalar va huquqiy pretsedentlarni yaratib taqdim etadi. Bu hodisa faqat texnik nosozlik emas u SI modellarining asosiy arxitekturaviy xususiyatidan kelib chiqadi, tizim ehtimoliy statistika asosida matn generatsiya qiladi, faktik to‘g‘rilikni mustaqil tekshirish mexanizmi esa ko‘pincha mavjud emas. Bu hodisaning amaliy oqibatini Mata v. Avianca, Inc. (22 Civ. 1461 (PKC), S.D.N.Y.,) ishi misolida ko‘rishimiz mumkin.[10] AQShning Nyu-York Janubiy Okrug Sudida ko‘rilgan ushbu ishda advokat Stiven Shvarts sudga taqdim etilgan himoya arizasini ChatGPT yordamida tayyorlab, unda oltita mavjud bo‘lmagan, to‘qima sud qaroriga murojaat qilgan. Qarama-qarshi tomon bu keyslarni topa olmaganini sudga bildirgan, sudya Kevin Kastel esa advokatdan ularning asl nusxalarini talab qilgan. Advokat SI dan foydalanganini va natijalarni mustaqil tekshirmaganini tan olib, jarimaga tortilgan.

Ushbu keys xalqaro arbitraj amaliyoti uchun bir necha fundamental xulosani belgilab beradi. Birinchisi, har qanday yuridik hujjatni sudga yoki arbitraj tribunaliga taqdim etishdan avval uning faktik va huquqiy to‘g‘riligini tekshirish mas’uliyati doimo advokatning zimmasida qoladi. Ikkinchisi SI orqali olingan ma’lumotlar huquqiy mutaxassis nazoratisiz daliliy kuchga ega bo‘la olmaydi. Arbitraj tribunallar endi SI yordamida tayyorlangan hujjatlarga shubha bilan qarashi va keltirilgan yuridik asoslarning asl manbalarini talab qilishi zarurati ortib bormoqda.

SI tizimlarining aksariyati “qora quti” *(black box)* asosida ishlaydi, tizim muayyan natijaga qanday erishganini tushuntirish juda qiyin yoki texnik jihatdan imkonsiz.[11] Bu holat xalqaro arbitrajning asosiy tamoyillaridan biriga har bir tomonning raqib dalillarini tekshirish va ularga e’tiroz bildirish huquqiga zid kelishi mumkin.

Xalqaro arbitrajda tegishli protsessual huquq (due process) uch asosiy talabni o‘z ichiga oladi: (i) har bir tomonning nizoning mohiyatiga oid asoslardan xabardor

[10]Mata v. Avianca, Inc., 22 Civ. 1461 (PKC) (S.D.N.Y. June 22, 2023). Ish haqida batafsilroq: Virtuosity Legal. AI in Court: When Legal Tech Goes Rogue – Lessons from Mata v. Avianca.: https://virtuositylegal.com/ai-in-court-when-legal-tech-goes-rogue-lessons-from-mata-v-avianca/

[11]“Qora quti” (black box) muammosi haqida: Pasquale, F. The Black Box Society: The Secret Algorithms That Control Money and Information. Harvard University Press, 2015. Shuningdek: Adadi, A. & Berrada, M. “Peeking Inside the Black-Box: A Survey on Explainable Artificial Intelligence.” IEEE Access, vol. 6, 2018, pp. 52138–52160.

bo‘lishi; (ii) o‘z e’tirozlarini to‘liq bildirish imkoniyatiga ega bo‘lishi; (iii) taqdim etilgan dalillarni mustaqil tekshirish huquqi. “Qora quti” modellari uchinchi talabni amaliyotda amalga oshirishni inkor etadi, qaysi ma’lumot bazasidagi qaysi manbaga, qanday usul bilan murojaat qilinib xulosa chiqarilganini bilmasdan turib, SI tomonidan yaratilgan dalilni to‘laqonli tekshirib bo‘lmaydi. Bu ayniqsa yirik tijorat nizolarida, adolatli ko‘rib chiqish talabiga putur yetkazish xavfini tug‘diradi.

Arbitrajning muhim afzalliklaridan biri jarayon maxfiyligi. Biroq ochiq va ommaviy SI modellariga maxfiy korporativ ma’lumotlar, tijorat sirlari yoki shaxsiy ma’lumotlar kiritilganda, bu ma’lumotlar SI modelining o‘quv ma’lumotlar to‘plamiga kirib qolish va uchinchi shaxslarga oshkor bo‘lish xavfi mavjud. Bu holat Yevropa Ittifoqining ma’lumotlarni himoya qilish umumiy Reglamenti[12] *(General Data Protection Regulation – GDPR)* va bir qator milliy qonunlar talablarini ham buzishi mumkin. Bunday holda ma’lumotlar uchinchi tomonlarning kelajakdagi so‘rovlari orqali oshkor bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas. CIArb ko‘rsatmalari shu sababdan maxfiylikni to‘la kafolat bermagan SI vositalariga konfidensial ma’lumotlarni kiritmaslikni tavsiya etadi.

4. Tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lgan hujjatlari va yechimlar

Silicon Valley Arbitration and Mediation Center *(SVAMC)* tomonidan ishlab chiqilgan *Guidelines on the Use of Artificial Intelligence in Arbitration* yo‘riqnomasi xalqaro arbitrajda SI ni tartibga solishga qaratilgan hujjatlaridan biri hisoblanadi.[13] Yo‘riqnomada SI vositalarini noto‘g‘ri ishlatib dalillarni soxtalashtirish yoki noto‘g‘ri ifodalashni taqiqlaydi.

SVAMC yo‘riqnomalari LCIA Qoidalarining 14(6)(iii)-moddasi va HKIAC 2024 Qoidalarining 13(1)-moddasi bilan ham muvofiq, ikkala me’yoriy hujjat ham arbitraj samaradorligini oshirish maqsadida texnologiyalardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi, lekin foydalanuvchining huquqiy javobgarligini kamaytirmaydi. Chartered Institute of Arbitrators *(CIArb)* tomonidan ishlab chiqilgan *Guideline on the Use of AI in Arbitration* yo‘riqnomasi bir qator muhim talablarni belgilaydi.[14] Birinchidan, SI natijalariga qaramay, barcha huquqiy javobgarlik tomon, advokat yoki arbitr zimmasida qoladi. Ikkinchidan, maxfiylikni to‘la kafolat bermagan SI vositalariga konfidensial ma’lumotlarni kiritish tavsiya etilmaydi. Uchinchidan, muhim dalillar yoki protsessual qarorlarga ta’sir qiladigan holatlarda SI dan foydalanish oshkor etilishi lozim. To‘rtinchidan, arbitrlar o‘z qaror qabul qilish

[12]Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council (General Data Protection Regulation – GDPR): https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj

[13]Silicon Valley Arbitration and Mediation Center (SVAMC). Guidelines on the Use of Artificial Intelligence in Arbitration (First Edition): https://svamc.org/wp-content/uploads/SVAMC-AI-Guidelines-First-Edition.pdf.

[14]Chartered Institute of Arbitrators (CIArb). Guideline on the Use of AI in Arbitration: https://www.ciarb.org/media/bpndtcgu/guideline-on-the-use-of-ai-in-arbitration_updated-sept-2025.pdf.

vakolatlarini SI ga topshirmasdan, uning natijalarini mustaqil tekshirishlari shart. CIArb ko‘rsatmalari SVAMC tamoyillari bilan qiyoslaganda umumiy o‘xshashlik ko‘zga tashlanadi. Farqi shundaki, SVAMC yanada texnik va institutlar qoidalariga yaqin yondashuvda bo‘lsa, CIArb ko‘rsatmalari arbitrning shaxsiy javobgarligiga alohida urg‘u beradi.

ODR platformalari (SmartSettle, Nominet) o‘z algoritmlarini aniq va oldindan belgilangan texnik qoidalar asosida sozlagan, tomonlarga jarayon haqida to‘liq ma'lumot taqdim etadi. SVAMC va CIArb yo‘riqnomalari ham shunga o‘xshash shaffoflik va oshkor qilish *(disclosure)* talablarini ilgari suradi. Biroq muhim farq mavjud, ODR platformalari raqamli muhitda yopiq, muvozanatlangan algoritmlardan foydalanadi, bu “qora quti” muammosini minimallashtirishga yordam beradi. Xalqaro tijorat arbitrajida esa tomonlar turli, ko‘pincha tekshirilmagan ommaviy SI modellaridan foydalanishi mumkin. Bu asimmetriya maqbullik va ishonchlilik talablarini baholashni ancha murakkablashtiradi. Shuningdek, Vena Xalqaro Arbitraj Markazi *(VIAC)* eslatmasi va Stokgolm Tijorat Palatasi *(SCC)* qo‘llanmasi ham SVAMC va CIArb tamoyillarini qo‘llab-quvvatlaydi, bu xalqaro arbitraj da ushbu asosiy prinsiplar atrofida konsensus shakllanib borayotganidan dalolat beradi. Yevropa Ittifoqining Sun’iy Intellekt to‘g‘risidagi Qonuni *(EU AI Act)*[15] yuqori xavfli SI tizimlariga jumladan, sud-huquq sohasidagi tizimlarga qo‘yiladigan qat’iy talablarni belgilab, xalqaro arbitrajda qo‘llaniladigan yuridik SI vositalariga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

Yuqorida tahlil etilgan material asosida quyidagi umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishga asos mavjud. Birinchidan, SI tomonidan yaratilgan hujjatlar o‘z-o‘zidan huquqiy kuchga ega bo‘lmaydi. Ular faqat inson tomonidan har tomonlama tekshirilgandan, tasdiqlangandan va asl dalillar bilan bog‘langandan keyingina ahamiyat kasb etadi. Bu xulosa Mata v. Avianca keysi, CIArb yo‘riqnomalari va SVAMC tamoyillarining barchasi bilan muvofiq. Ikkinchidan, gallyutsinatsiya xavfi, “qora quti” muammosi, maxfiylik va Nyu-York Konvensiyasi doirasida ijro masalalari bularning barchasi arbitrajda SI dan foydalanishni tartibga solishni zarurligini ko‘rsatadi. Uchinchidan, SVAMC, CIArb va boshqa soft law hujjatlari muhim me’yoriy asos yaratgan, biroq majburiy xarakter kasb etmagan. Xalqaro arbitraj institutlari tomonidan qabul qilinadigan protsessual qoidalar darajasida tartibga solish zarur.

Xalqaro arbitrajning yaxlitligini ta’minlash maqsadida maqolada uch bosqichli sertifikatlash mexanizmi taklif etiladi. Birinchi bosqich SI tizimini akkreditatsiya

[15]Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council on Artificial Intelligence (EU AI Act): https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=OJ:L_202401689

qilish, mustaqil xalqaro organ (masalan, ISO sertifikatlash tizimi yoki maxsus arbitraj akkreditatsiya markazining doirasida) tomonidan SI vositasining algoritmlari, ma'lumotlar to'plami to'g'riligi va noxolislikdan xoli ekanligi tekshirilib, ruxsatnoma beriladi. Faqat akkreditatsiyadan o'tgan SI vositalaridan olingan natijalar arbitrajda dalil sifatida taqdim etilishi mumkin bo'ladi. Ikkinchi bosqich hujjatni shakllantirish jarayonini sertifikatlash hisoblanadi. Har bir SI orqali tayyorlangan hujjatga meta-ma'lumotlar (SI versiyasi, foydalanilgan ma'lumotlar manbasi, tekshiruvchi identifikatori va sana) kiritilishi hamda hujjat butunligini tasdiqlovchi kriptografik xesh-kod *(cryptographic hash code)* berilishi lozim. Bu chora "qora quti" muammosini qisman bartaraf etib, arbitrlar tomonning dalilni mustaqil tekshirish imkoniyatini yaxshilaydi. Uchinchi bosqich arbitraj organi ma'qullashi *(institutional endorsement)*, bunda ICC, LCIA, SIAC, O'zbekiston Respublikasining Toshkent Xalqaro Arbitraj Markazi (TIAC) va boshqa yetakchi institutlar faqat akkreditatsiyadan o'tgan SI vositalari orqali olingan va ikkinchi bosqich talablariga javob beruvchi hujjatlarni qabul qilish bo'yicha protsessual qoidalariga o'zgartirish kiritishi kerak.

Majburiy oshkor qilish *(mandatory disclosure)* masalasiga kelsak, maqolada tomonlarga arbitraj qoidalari darajasida muhim yuridik argumentlar yoki dalillarni shakllantirishda SI vositalaridan foydalanilganligini oshkor etish majburiyati yuklanishi tavsiya etiladi. Biroq arbitrlar uchun bunday majburiyat ikkilamchi bo'lib, tomon talabi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Taklif etilgan tizim ham kamchiliklardan xoli emas, o'zaro integratsiyalangan SI tizimlari ma'lumotlarning uchinchi tizimlarga o'tib ketishi xavfi yo'qolmasligi mumkin, akkreditatsiya jarayonining texnik murakkabligi va xalqaro miqyosda amalga oshirish narxi ham yuqori. Shu sababli mexanizmni yanada takomillashtirish uchun keng ko'lamli empirik tajribalar va qiyosiy huquqiy tadqiqotlar o'tkazish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. Adadi, A. & Berrada, M. "Peeking Inside the Black-Box: A Survey on Explainable Artificial Intelligence." *IEEE Access*, vol. 6, 2018, pp. 52138–52160.
2. Akramov Akmal, Sun'iy intellektning xalqaro tijorat arbitrajida nizolarni hal qilishdagi ahamiyati: monografiya. – T.: TDYU nashriyoti: https://drive.google.com/file/d/1Xq8LeN9MFZ1HQ7Y1P_BGHYZml_uvA6bR/view
3. Bozorov S. Sun'iy intellect doirasida huquqiy javobgarlik. Yuridik fablari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., TDYU. 2023
4. F.A.Meliquziyev. S.S.Bozorov. Onlayn arbitrajda sun'iy intellect arbitr yordamchisi rolida. Sun'iy intellect ilovalari va xizmatlari/ Academic research

in modern science International scientific-onlineconference /https://doi.org/10.5281/zenodo.6778696

5. Chartered Institute of Arbitrators (CIArb). Guideline on the Use of AI in Arbitration (Updated September 2025). URL: https://www.ciarb.org/media/bpndtcgu/guideline-on-the-use-of-ai-in-arbitration_updated-sept-2025.pdf
6. International Bar Association (IBA). Rules on the Taking of Evidence in International Arbitration (2020). URL: https://www.ibanet.org/document?id=iBA-rules-taking-ev-2020
7. Mata v. Avianca, Inc., 22 Civ. 1461 (PKC) (S.D.N.Y. June 22, 2023). Detailed case analysis by Virtuosity Legal: "AI in Court: When Legal Tech Goes Rogue – Lessons from Mata v. Avianca." URL: https://virtuositylegal.com/ai-in-court-when-legal-tech-goes-rogue-lessons-from-mata-v-avianca/
8. Microsoft Purview eDiscovery & Relativity aiR for Review: Relativity Corp., 2024–2025. URL: https://learn.microsoft.com/en-us/purview/ediscovery
9. OpenAI. GPT-4 Technical Report. OpenAI, 2023. URL: https://cdn.openai.com/papers/gpt-4.pdf
10. Pasquale, F. *The Black Box Society: The Secret Algorithms That Control Money and Information*. Harvard University Press, 2015.
11. Practice Direction 57AC – Trial Witness Statements in the Business and Property Courts. White Book 2025 (Volume 2), last updated 6 January 2025. URL: https://www.justice.gov.uk/courts/procedure-rules/civil/rules/part-57a-business-and-property-courts/practice-direction-57ac-trial-witness-statements-in-the-business-and-property-courts
12. Practice Direction 57AD – Disclosure in the Business and Property Courts. URL: https://www.justice.gov.uk/courts/procedure-rules/civil/rules/part57adpd
13. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement such data, and repealing Directive 95/46/EC (General Data Protection Regulation – GDPR). URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj
14. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act / EU AI Act). URL: https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=OJ:L_202401689
15. Silicon Valley Arbitration and Mediation Center (SVAMC). Guidelines on the Use of Artificial Intelligence in Arbitration (First Edition). URL:

https://svamc.org/wp-content/uploads/SVAMC-AI-Guidelines-First-Edition.pdf

16. SmartSettle International Inc. SmartSettle ODR platform (SmartSettle Auction). URL: https://www.smartsettle.com/smartsettle-auction
17. Thomson Reuters Practical Law. "Artificial Intelligence in International Arbitration: Overview." URL: https://uk.practicallaw.thomsonreuters.com/w-044-1948
18. UNCITRAL. Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006. URL: https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/modellaw/commercial_arbitration
19. United Nations Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York, 10 June 1958). URL: https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/new-york-convention-e.pdf